

O'ZBEK TILIDA TA'NA-DASHNOM VA TANBEH TUSHUNCHASI

Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti assistenti

<https://orcid.org/0000-0003-1194-9222>

isroilataboyev2@gmail.com Tel: +998 94 005 66 99

Annotatsiya:

Ushbu maqolamizda o'zbek tilida ta'na-dashnom va tanbeh tushunchasi o'rganiladi va tahlil qilinadi. Ta'na-dashnom konsepti bilan bog'liq turli xil so'zlar va ma'nolarni o'rganib chiqib, biz norozilik va tanqidning turli kontekstlarda qanday ifoda etilishi hamda qabul qilinishini chuqurroq anglashimiz mumkin.

Tayanch so'zlar: maddohlik qilmoq, oqlamoq, tilyoqlamalik, tanqid etmoq, shontaj, ta'na, tuxmat, yerga urmoq, kamsitmoq.

Hozirgi o'zbek tilda **maddohlik qilmoq** fe'li ham oshirib maqtash amalini bildiradi. Lekin bu fe'lining ma'nosi salbiy emotsional bo'yoq bilan ajralib turadi. Shuningdek, **oqlamoq** fe'lining ko'chma ma'nosida ham ijobiy baho elementi bor. Lekin bu fe'l yuqorida tahlil etilgan fe'llardan bir muxim xususiyati bilan farq qiladi. Bu fe'l ko'chma ma'noda har qanday odam to'g'risida ijobiy gap gapirishni emas, balki biror qilmishda shubhaga olingan odam to'g'risida ijobiy gap gapirishni bildiradi. Demak, bu fe'lining ko'chma ma'nosida himoya komponenti ham bor. Bu fe'lining ko'chma ma'nosi bildiradigan nutq akti biror odam to'g'risida ijobiy gap gapiradi, uning bu gapni gapirishdan maqsad shu odamni shubhadan, tuhmatdan, o'rinsiz ayblashdan himoya hilish bo'ladi. Masalan: Xususan aravakash "bizning Yo'lchiboy ham chakki emas, sakson pud bug'doy bilan bir yuz to'qson so'm pulning hammasini o'zi yolg'iz oldi deb piching otganda, u yigit terlab ketib, o'zini **oqlay boshladi...**"[1]

Bizning fikrimizcha maddohlik nafaqat salbiy balkim tilyoqlamalik, shuningdek, ayyorlik bilan hushomad qiluvchi ishlatiladigan va bugungi jonli tilda bu so'z tilyog'lamalik qiluvchi, xushomad orqali kimgadir yaxshi ko'rinishni istovchi degan mazmunni tashiyapti. Bunday maddohlik hamma zamonlarda qoralangan, dinimiz qat'iy qaytargan[2] tuban ishdur.



Salbiy emotsional bahoni bildiradigan sub'ektiv hukm fe'llarining semantik yadrosi, dominantasi **yomonlamoq** fe'lidir. Bu fe'l biror odam to'g'risida «Salbiy fikr aytish amalini bildiradi. Misollar: Yana talay odamlarni **yomonladi**; Shu Abbosxonning o'zi necha martaba majlislarda uni yomonlagan. Hozirgi tilda **chalpimoq**, **badgo'ylik qilmoq** fe'llari ham shu yo'sinda qo'llanadi. Misol: Sizga mening to'g'rimda biron g'alamis **badgo'ylik qilgan bo'lsa** ajab emas. Shuning uchun meni e'tirof qilmay turibsiz.[3]

Salbiy emotsional bahoni bildiradigan sub'ektiv hukm fe'llaridan bir gruppasining ma'nosi kamsitish (ya'ni keragidan kam baholash) semasi bilan xarakterlanadi. Bunday fe'llar gruppasi **yerga urmoq, kamsitmoq**, kabi fe'llardan iborat. Bu fe'llar bildiradigan nutq akti biror odam, uning xarakteri yo'ishini atayin kamsitib gapiradi. Masalan: Bu qizni ayol deb **kamsitmagin**[4]; Shunday odam birov **kamsitsa** xafa bo'lmaydimi? Zimdan **kamsitsa** ham fahmlab xafa bo'ladi[4].

“-Turklar bizni o'ldirishadimi? - Yo'q. Janjalni senlar boshlaysanlar, qon to'kishga boshqalar tayyor turishibdi. Ular qonlaringni ichib, g'oyib bo'lishadi. Baloga senlar qolasanlar. - Kim ular? - Vaqti kelganda bilib olasan. - Shunaqami? Men chechenlar mard bo'ladi, deb eshitardim. Quyonyuraklari ham bo'larkan-da, - dedi Hosilboyvachcha ijirg'anib. Zelixon ko'zidan uchqun chaqnadi. - Chechenlarga til tekkizma! Sen men bilan gaplashyapsan. Agar men senga qarab turib, “o'zbeklar lattachaynar ekan”, desam yoqamanmi? - Okaxon, men sizni odam deb gaplashishga rozi bo'ldim. Hamma narsaning chegarasi bor. Xongireyga tanishman, deb o'zingizdan ketmang”[5]. Bu misolda Zelixonning naqadar o'tkir zehni, ko'pni ko'rgan kishi ekanligini va o'z davrining martabali va obro'li kishilaridan biri bo'lgan Hosilboy bilan bo'lgan birinchi suhbatdayoq unga tanbeh berayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Zelixon shahardagi kattalarning biri Hosilboyvachcha ekanini dastlab eshitganida uni dadil, cho'rtkesar yigitdir, deb o'ylagan edi. Ammo bir necha daqiqa burun barmoqlariga tilla uzuklar taqqan, o'ziga zeb bergan kibor yigitni ko'rgach, hafsalasi pir bo'ladi. U mard odamlarni yoqtirardi. Suhbatdagi yigit esa sher emas, tulki ekanini fahmlab, suhbatning boshidayoq uning kimligini anglagan edi.

Salbiy emotsional bahoni bildiradigan sub'ektiv hukm fe'llaridan bir gruppasining ma'nosi tanqid semasi bilan xarakterlanadi. Bunda fe'llarni qisqacha qilib tanqid



fe'llari deyish mumkin. Tanqid fe'llarining identifikatori, dominantasi **tanqid etmoq**, fe'llaridan iborat. Bu fe'llar biror odamning qilg'i, ishi yoki gapini salbiy baholab gapirish amalini bildiradi.

Tanqid fe'llarning bir gruppasida ma'no kuchayib, intensivlanib ifodalanadi. Bunday birliklarning hammasi idiomatik xarakterga ega. Bunday fe'llar ma'nosining asosini muayyan harakat tasavvuri, yorqin obraz tashkil etadi.

Bu birliklar **qovurmoq, do'pposlamoq, sulaytirmoq, kaltaklamoq, po'stagini qoqmoq, avra-astarini ag'darmoq** kabi fe'l va frazeologizmdan iborat. Bu fe'llar qattiq tanqid qilmoq ma'nosini anglatadi. Misollar: Idora xizmatchilarining bir majlisida Sulaymonovni rosa **sulaytirishdi**[4]; Avzoidan hozir yacheyka kotibini chaqirib, toza **qovuradigan** ko'rinadi[4].

Tanqid fe'llaridan bir gruppasining ma'nosi jazo semasini ham o'z ichiga oladi. Bunday fe'llar gruppasi **dodini bermoq, ta'zirini bermoq, boplamoq** kabi fe'llardan iborat. Bu fe'llar biror nojo'ya ish harakat qilgan odamning qilg'ini qattiq qoralash, jazolash amalini bildiradi. Masalan: "- Bekorga qo'yib yubording. Tinchitish kerak edi, - dedi Haydar, barmoqlarini qisirlatib. Uning odatini bilmagan kishi hozir musht urganda panjalari chiqib ketgan ekan, endi joyiga solyapti, deb o'ylashi mumkin. Barmoqlarini qisirlatish - asabiylashayotganidan darak. Asadbek uch narsaga toqat qilolmaydi: laganga qoshiq yoki sanchqi tegib taraqlasa, yonidagi odam ovqatni chapillatib yesa, barmoqlar qisirlasa g'ashi kelib miyasiga igna sanchilganday bo'ladi. Taqdirning g'irrom o'yini bu fazilatlarning barchasini Haydarga nasib etgan. Yillar mobaynida Asadbek unga tanbeh beraverib charchadi. Agar bu tanbehlar molga aytilsa, u tuppa-tuzuk odamga aylanib qolishi mumkin edi. Lekin Kesakpolvon yaratgan egam ato etgan bu fazilatlariga zarracha xiyonat qilmay yashayapti. Asab torlari tarang tortilgan Asadbek unga o'qrayib qarab turib, oxiri portladi: - Jim o'tirsang-chi, birpas! Dunyoning oromini shu barmoqlar qisirlashi buzib turganday, xonani birdaniga sukunat bosdi. Ikkala a'yon Asadbekka tikilib o'tiraverishdi. Bir necha nafaslik sukut Asadbekning ham joniga tegib, ohista gap boshladi:"[5] Ushbu misolda Kessakpolvon vinzovodning direktori Qilichbekni jazolamasdan qo'yib yuborgani uchun do'sti Asadbekga ta'na qiladi ya'ni Qilichbekning dodini berishni (Tinchitish kerak) hohlashini aytadi. Asadbek do'sti



Kessakpolvonning bo'lmag'ur odatini ilgaridan yoqtirmasligini keltirib o'tgan va yillar davomida do'stiga shu odati uchun Kesakpolvon ham undan tanbeh olganini yuqoridagi misolda ko'rishimiz mumkin. Biz manbaalarga asoslangan holda shu joyda tanbeh konseptining ma'nosiga yana bir ta'rif keltirib o'tamiz. Tanbeh bu-nojo'ya xatti-harakat uchun berilgan ta'zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo degan ma'nolarni anglatadi.

Mehri ta'na-dashnom, shovqin, do'q kutib, qayg'u-xasratga to'lib, zor-zor yig'lab chiqishni bo'yniga olib kirgan bu xujradan yuragini zulukday so'rib yotgan allanimalardan qutulib, ko'ngli yorishib chiqdi. U Saida bilan xayrlashib, bir necha qadam bosganidan keyin qaytib derazadan boshini tiqdi va quvnoq tovush bilan: Saida opa, dedi garchi Saida undan sakkiz-o'n yosh kichik bo'lsa ham, - meni kaysi o'qishga munosib ko'rsangiz o'shanga yozing! Siz nima desangiz shu![4]

O'zbek tilida **tanbeh bermoq, tanbehlamok, tanbeh qilmoq** kabi fe'llarning ma'nosi ham tanqid semasi bilan xarakterlanadi. Lekin bu fe'llar hamma vaqt konkret amal, konkret ishga nisbatan qo'llanadi. Bu fe'llarda kimningdir biror harakati, gapi, qilg'i noo'rin topilgani, salbiy baholangani ifodalanadi. Masalan: "Hayal o'tmay Marg'uba yotoqdan chiqib, zalning chirog'ini yoqdi va deraza ostidan odam yurgizmaslikni tayinlash uchun qarindoshlar, yordo'stlar, Anvarning o'rtoqlari, talabalar o'tirgan mehmonxonaga tomon ketayotgan edi, Anvar uning bilagidan siltab to'xtatdi va g'ijini shivirladi. Amma, farosat degan narsa bormi, dadamning oldida muncha yig'laysiz!"[6]

A.Qahhor ushbu Yetim hikoyasida Anvar ismli qahramonning Otasining o'lim to'shagida vaqtdaligida ammasi yig'idan o'zini tiyaolmaganligidan g'ijinadi va jahl bilan ammasiga ta'na qiladi. Tanbeh faqat kattalar, rahbarlar yoki o'qimishli, ziyoli kishilar tomonidan kichiklarga beriladi» degan fikr ham to'g'ri emas. Aksincha, bunday kishilar o'z so'zlarining qadr-qimmatini bilishlari, xulas bexudaga kishilarni mulzam qilavermasliklari kerak.

Salbiy emotsional baho fe'llaridan bir gruppasining ma'nosi ayblash semasi bilan xarakterlanadi. Bunday fe'llar gruppasiga **qoralamoq, ayblamoq, gunohkor qilmoq** kabi fe'llar kiradi. Bu fe'llar biror odamni g'ayri-qonuniy yo g'ayri axloqiy ish-harakatta daxldor qilib gapirish amalini bildiradi. "U osongina qutuldim, deb o'midan turmoqchi edi, Asadbekning gapi joyiga qayta mixladi-qo'ydi: -



Hosilboyvachchaga salom aytib qo'y. »Bilibdimi?!» Osongina qutuldim deb o'ylagan Qilichning yuziga endi qizillik yugura boshlagan edi. Bu gapdan keyin rangi quv o'chib, murdadan farqi qolmadi. - Hosilboyvachchaga aytib qo'y: senikini artguncha, o'zinikini eplasini. Kelib-kelib o'shandan panoh izladingmi, e, so'tak! - Men... panoh izlamadim... boshqa ish bilan borgan edim"[5]. Yozuvchi ushbu jumla bilan voqea qahromoni qilgan xato ishi uchun Asadbek tomonidan bildirilgan birgina shu gap bilan har ikkoviga ham ta'na qilayotganini ayta olamiz. Garchi ikkinchi kishi voqea joyida bo'lmasa ham unga ham ta'na qilingan.

O'zbek tilida **to'nkamoq, bo'hton qilmoq, ayb taqmoq, tuhmat qilmoq, tuhmat uydirmoq**, kabi fe'llari ham ayblash semasiga ega. Lekin bu fe'llar **ayblamoq, qoralamoq** kabi fe'llardan bir muhim xususiyati bilan ajralib turadi. Agar **ayblamoq, qoralamoq** fe'llarining ma'nosi uchun ayblashning haq yoki nohaq ekanligi norelevant bo'lsa, **tuhmat qilmoq, ayblamoq** kabi fe'llarning ma'nosi uchun bu belgi muhim qiymatga egadir: **tuhmat qilmoq, ayblamoq** kabi fe'llar umuman ayblash) amalini emas, balki nohaq ayblash amalini bildiradi. Misol: "- Menga qara, ahmoq. Bu nima qilganing. Birovning pardadagi qizini qayoqlarga oborib tashlading? Qani u? Yo sen opqochmaganmiding? Yomonlar o'lsin, yomonginalar o'lsin. Lutfinisani sen opqochgan gumon qilib ne-ne mazamatlami qilishmadi"[7] Yuqoridagi misolda bo'lsa yozuvchi Azizxonning onasi o'z o'g'liga qishloqdagi odamlar uni no'rin ayblayotganini va tuxmat qilayotganini vaj qilib unga tanbeh berayapti. Yozuvchi Said Ahmad asarlarida ta'na-dashnom, tanbeh, kinoya kabi so'zlar juda ko'p ishlatilgan har bir jumlagacha e'tibor berilsa yozuvchi o'z asarlarini o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun juda mohirona xalq tili bilan yozgan.

Salbiy emotsional baho fe'llaridan bir gruppasining ma'nosi **ta'na** semasi bilan xarakterlanadi. Bunday fe'llar gruppasi **ta'na qilmoq, o'pkalamoq, o'pka qilmoq, gina qilmoq, ginaxonlik qilmoq, malomat qilmoq** kabi fe'llardan iborat.

Bu fe'llarning ma'nosida, ta'na-dashnom semasidan tashqari, yana xafa bo'lish semasi ham mavjud. Bu fe'llar bildiradigan situatsiya shundaki, bunda nutq aktini kimdir (tanish, yaqin odam) biror qilg'i, gapi bilan ranjitadi, nutq akti uning gapi, qilg'ini qoralab gapiradi, o'zining xafa bo'lganini aytadi. Misollar: "Xotinining



jahli chiqib ketdi. -Voy, erkak kishi bo'la turib, meni ovutish o'rniga nega gulxanimga fonar yog'i sepasiz? Xotin kishi bo'la turib men sabr qilib o'tiribman-ku, nega siz bay-baylaysiz? Sal og'irroq bo'lingda. Do'st bor, dushman bor. Ahvolingizni ko'rib, battar bo'l, demaydimi?!"[7] Yuqoridagi misolda xotini eridan ranjib unga malomat qiladi ya'ni, Ummatali o'g'lini agar Hojimuqonni oldiga borsa Hojimuqon uni orqasiga qaytarib yuborardi deya xotinini ko'ngliga g'ulg'ula solidi. Xotini bo'lsa bu gapi uchun eridan o'pka qiladi.

Salbiy emotsional baho fe'llaridan bir guruhining ma'nosi chaqimchilik semasiga ega. Bunday fe'llar biror odamning sirini yoki boshqa bir odam to'g'risidagi salbiy yo yashirin gapini shu odamga gapirib berish amalini bildiradi. Salbiy emotsional baho fe'llarining ba'zilari g'iybat semasi bilan xarakterlanadi. Bu kabi fe'llar guruhi **chaynamoq, gap qilmoq, gapso'z qilmoq, g'iybat qilmoq, orqasidan tosh otmoq** kabi fe'llardan iborat. Bu fe'llar biror odam to'g'risida boshqa bir odamga mish-mish gaplar gapirishni bildiradi.

Nutq adresatida salbiy emotsiya uyg'otishga qaratilgan nutqni bildiruvchi fe'llardan bir guruhining ma'nosi so'kish sarkazmi bilan xarakterlanadi. Bu fe'llar gruppasi **urishmoq, qarg'amoq, qarg'ishlamoq, so'kmoq, koyimoq, la'natlamoq, la'nat yog'dirmoq, la'nat aytmoq, la'nat o'qimoq** kabi fe'llardan iborat. Bu fe'llar ko'rsatadigan nutq akti o'zining biror shaxs, uning qiligi to'g'risidagi sub'ektiv hukmini so'kish, qarg'ish yordamida bildiradi.

Misol: "Akbarali ko'chaga chiqolmay, hovlining u boshidan-bu boshiga so'kinib borib-kelib turardi. Eshikdan kirib kelgan er-xotinni ko'rib bir zum o'zini yo'qotdi. He yo'q, be yo'q, o'dag'aylashga tushdi: - He, muttahaam bola o'stirgan senlardan o'rgildim. Qani, jo'na, tuyoqlaringni shiqillatib qollaring!"[7] Bu misolda yozuvchi Akbaralining g'azabini o'dag'aylash la'nat aytish orqali keltirayapti ya'ni Akbaralining nomusini Ummatalining o'gli buzganligini uchun uning ota onasiga o'dag'aylayotganini ko'rishimiz mumkin.

Nutq aktining sub'ektiv hukmini adresatda salbiy emotsiya uyg'otish yordamida ifodalashga qaratilgan fe'llar qatoriga **jekirmoq, siltamoq** fe'llari ham kiradi. Lekin bu fe'llarning differentsiatsiyalovchi semasi so'kish emas. Bu fe'llar bildiradigan nutq shunday bo'ladiki, bunda nutq akti o'zining salbiy munosabatini baland yoki keskin tovush-ohang yordamida anglatadi. Masalan: "- Uyat-e, shu yosh boladan



kaltak yeb o'tirsalarining. Bu gavda savlat ekan-da. U shunday deb o'g'lini turtib-turtib chetga olib chiqdi. - Sening dastingdan biron joyda xotijam bitta piyolagina choy icha olamanmi, yo'qmi? He, senga polvonlikni o'rgatgan Hojimuqondan o'rgildim!"[7]. Yuqoridagi misolda asar qahramoni o'z otasidan jerkib tanbeh olgani va bu tanbehga lom lim demasdan otasiga betma bet kelaolmasligi dadasining ko'ziga qarasa shashtidan qaytishi haqiqiy o'zbek o'g'lonining otadan olgan tarbiyasini qisqagina jumla bilan ko'rsatib bergan.

Nutq adresatida salbiy emotsiya uyg'otishga qaratilgan nutqni bildiradigan fe'llardan bir guruhining ma'nosi **haqoratlash, tahqirlash** differentsial arxisemasi bilan xarakterlanadi. Bunday fe'llar gruppasi **dilozorlik qilmoq, haqoratlamoq, tahqirlamoq, tahqir qilmoq, tahqir etmoq, haqorat qilmoq** kabi fe'llardan iborat. Bu fe'llar nutq adresatida tahqir hissini uyg'otadigan nutqni bildirish uchun qo'llanadi. Nutq aktining hukmi mana shu tuyg'u vositasida ifodalanadi. Masalan: "Baqirma. Nima, sen urushayotganingda bu yoqdagilar holva yeb o'tirganmidi. Manavi ham, - u Xolmatjonni ko'rsatdi, - sen borgan joydan kelgan. Odamga o'xshab yuribdi-ku. Qo'lida miltig'i borlar yapon bilan urushyapti, bilagida kuchi borlar ketmon chopyapti. E, bor-e, senam odam bo'lding-u... Bemor yotgan uyni atir bilan araq aralash hid qihb yubording, chiq. Asrora uni turtib ayvonga olib chiqdi, - Hammangni tillaring bir. - Albatta, tilimiz bir-da. Hammamizning dilimiz bir. Bitta sening tiling boshqa. Diling ham boshqa. Qazisan, qartasan, ash naslingga tortasan. Inoyat oqsoqoldan o'tib qayoqqa borarding!"[7]. Yuqoridagi misolda yozuvchi A'zamjon ismli kishini o'sha davrdagi qiynalgan holatlarni yoritib bergan. Asarda A'zamjon turmush o'rtog'ini traktor haydashiga uni tahqirlab og'ir mehnat qilishiga qo'yib bergan o'zi bo'lsa aysh-ishratda yurganini kuzatamiz. O'sha voqealarga chiday olmagan Dildorning o'rtog'i Asrora A'zamjonga ta'na qilayotgani yuqoridagi misolda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi tilda **dashnom bermoq, til tegizmoq, shaxsiyatiga tegmoq, dashnom qilmoq** fe'llarining ma'nosi ham haqorat semasi bilan xarakterlanadi. Misol: "Dildor bundan o'n besh kun narida eri tashlab ketgan kechasi uyda yolg'iz qolgani, o'shanda Xolmatjon uni qo'riqlab to sahargacha uyi atrofida aylanib chiqqanini, tol tagidagi ajriqda uxlab qolganini eslab, o'zidan-o'zi xijolat bo'lib ketdi. Shundoq odamni, shundoq qahramon odamni ovora qilganiga endi uyalardi. - E, nodon



Dildor, - dedi o‘ziga-o‘zi, — senga yana nima kerak? Ozmuncha xo‘rlıklar ko‘rmadingmi? Shundoq yigit yo‘lingni poylasa, joni-jahonini yo‘linga sochaman deb tursa, ikkilanasan? Senga qanaqasi kerak? Bo‘yniga osilmaysanmi! Yo‘lini poylamaysanmi?!”[7] Yozuvchi asar qahromonlaridan biri Dildor ismli juvon o‘ziga o‘zi dashnom berayotganini yuqoridagi misolda uchramiz. Dildora eridan ajrgandan keyin uning eski oshig‘i A‘zamjon ismli yigitning unga parvona bo‘lganligini sezsa unga beparvo bo‘ladi va bo‘lib o‘tgan ishlardan uyalib o‘ziga o‘zi dashnom beradi. Demak ta‘na-dashnom faqat birov tamondan berilishi degan tushunchaga qarshi fikrni bizning yuqoridagi misolda ko‘rishingiz mumkin.

Shuningdek, **zahar sochmoq, g‘azab sochmoq, zahrini sochmoq** iboralari ham nutq aktining salbiy munosabatini emotsiya, his-tuyg‘u yordamida ifodalash amalini bildiradigan fe‘llar qatoriga kiradi. Nutq adresatida salbiy emotsiya uyg‘otishga qaratilgan fe‘llar orasida sof munosabat informatsiyasini ifodalaydigan fe‘l ham bor. Bu — **sensiramoq** fe‘li. Bu fe‘l sizlamoq, sizsiramoq fe‘llari bilan antonimik munosabatga kirishadi. Bu fe‘l nutq aktining nutq adresatiga nisbatan salbiy munosabatini ko‘rsatadi. Misol: O‘zidan kichik bu yigitning **sensiragani** Ahmadjonga malol keldi[4].

“Ta‘na” konsepti “dashnom” konseptidan biroz farq qiladi, ya‘ni vaziyatga qarab kuchliroq va qo‘polroq bo‘lib ifodalanishi mumkin. Quyidagi misolda yozuvchi o‘z asarida Nizomjon ismli asar qahramonining opasi Risolat ismi juvon o‘z ukasiga ta‘na qiliyaotganini ko‘ramiz. Bu misolda ta‘na, tuxmat va jargon tilda aytganda shontaj konseptiga ham misol bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ИИ. Қучқортоев Сўз маъноси ва унинг валентлиги (узбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида) Ўзбекистон ССР «Фан» нашриети Т о ш к е н т — 1977.
2. <https://islom.uz/maqola/1523>
3. Абдулла Қаҳҳор . Асарлар. Олти томлик. Тошвент 1967— 1971
4. А. Qahhor, Sinchalak, www.ziyonet.com kutubxonasi 1959
5. Tohir Malik Shaytanat Qissa Birinchi kitob www.ziyouz.com kutubxonasi 180-bet



6. A.Qahhor “Anor hikoyalar” Yetim hikoyasi TOSHKENT «Adabiyot uchqunlari» 2019
7. Саид Аҳмад Уфқ Трилогия Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти Тошкент — 1976.

